



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaniing psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeovich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarining texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoir Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

QIZLARDA ERTA NIKOHNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA SABABLARI

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti v/b dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada erta turmush qurish hodisasining psixologik omillari va sabablari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda 18 yoshga to'lmagan yoki ilk balog'at davrida nikohga kirgan yoshlarning shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy-psixologik motivlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, anketa va yarim strukturalashgan suhbat metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, erta nikohning asosiy psixologik sabablariga ota-onaning kuchli ta'siri, mustaqillikka intilish, hissiy yetuklikning yetarli darajada shakllanmaganligi, kelajakni rejalashtirish ko'nikmalarining rivojlanmaganligi, ijtimoiy bosim hamda an'anaviy qarashlarning ustuvorligi kiradi. Maqolada erta nikohning yoshlar ruhiy salomatligi va shaxs kamolotiga ta'siri muhokama qilinib, profilaktik psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: erta turmush qurish, erta nikoh, psixologik omillar, oila psixologiyasi, hissiy yetuklik, shaxs kamoloti, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy bosim.

Abstract: This article scientifically analyzes the psychological factors and causes of early marriage. The study examines the personal, familial, socio-cultural, and economic-psychological motives of young people who enter marriage before the age of 18 or during early adolescence. The research employed methods of theoretical analysis, questionnaires, and semi-structured interviews. The findings revealed that the main psychological causes of early marriage include strong parental influence, the desire for independence, insufficient emotional maturity, underdeveloped future-planning skills, social pressure, and the dominance of traditional views. The article also discusses the impact of early marriage on the mental health and personal development of young people and provides preventive psychological recommendations.

Key words: early marriage, psychological factors, family psychology, emotional maturity, personal development, youth psychology, social pressure.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения проанализированы психологические факторы и причины раннего вступления в брак. В исследовании изучены личностные, семейные, социально-культурные и экономико-психологические мотивы молодых людей, вступающих в брак до достижения 18-летнего возраста или в ранний период юности. В ходе исследования были использованы методы теоретического анализа, анкетирования и полуструктурированного интервью. Полученные результаты показали, что основными психологическими причинами раннего брака являются сильное влияние родителей, стремление к самостоятельности, недостаточная эмоциональная зрелость, несформированность навыков планирования будущего, социальное давление и доминирование традиционных взглядов. В статье также рассматривается влияние раннего брака на психическое здоровье и личностное развитие молодежи, а также представлены профилактические психологические рекомендации.

Ключевые слова: ранний брак, психологические факторы, психология семьи, эмоциональная зрелость, развитие личности, психология молодежи, социальное давление.

KIRISH

Hozirgi davrda yoshlarning erta turmush qurishi muammosi ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham dolzarb ijtimoiy-psixologik masala sifatida qaralmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va YUNISEF ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili millionlab qiz va o'g'il bolalar 18 yoshga to'lmagan oila qurmoqda. O'zbekistonda nikoh yoshi qonun bilan belgilangan bo'lib, qizlar uchun 18 yosh, ayrim hollarda esa istisno tariqasida 17 yoshdan boshlab nikohga kirishga ruxsat etilgan. Shunga qaramay, jamiyatda 18-21 yosh oralig'ida nikohga kirish holatlari ham erta turmush qurish doirasida o'rganilmoqda, chunki bu yoshda shaxsning hissiy, intellektual va ijtimoiy yetukligi to'liq shakllanib ulgurmagan bo'ladi.



Erta turmush qurish hodisasi nafaqat ijtimoiy yoki demografik, balki chuqur psixologik mazmunga ega bo'lgan masala hisoblanadi. Yosh shaxsning oila qurishga tayyorgarligi uning hissiy yetukligi, qaror qabul qilish ko'nikmalari, mas'uliyat hissi, kelajakni rejalashtirish qobiliyati hamda shaxslararo munosabatlardagi malakasi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur sifatlarning yetarli darajada shakllanmagan davrida nikohga kirish keyinchalik turli psixologik muammolarni, jumladan oilaviy nizolar, depressiya, affektiv buzilishlar va shaxsning o'zini namoyon qila olmasligini keltirib chiqarishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S. Vigotskiy, E. Erikson, I.S. Kon, T.V. Andreeva, E.G. Eydemiller kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yosh davrlarning har biri o'ziga xos rivojlanish vazifalariga ega. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, ilk balog'at davri (18-25 yosh) yaqinlik va izolyatsiya inqirozi davri hisoblanadi. Ushbu davrda shaxs avvalo o'zligini (identifikatsiyasini) shakllantirishi, so'ngra boshqa shaxs bilan chuqur yaqinlik munosabatlariga kirishishi maqsadga muvofiqdir. O'zligi yetarli darajada shakllanmagan yoshlarning oila qurishi keyinchalik shaxsiy va oilaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024-2025 o'quv yillarida Farg'ona viloyatining shahar va qishloq hududlarida amalga oshirildi. Tadqiqot aralash (kombinatsiyalashgan) metodologiyaga asoslanib, miqdoriy va sifatlil yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Mazkur yondashuv erla nikoh muammosining nafaqat statistik ko'rsatkichlarini, balki shaxsiy kechinmalar va individual ma'nolarini ham chuqur ochib berish imkonini yaratdi.

Tadqiqotda jami 180 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 90 nafari 18-21 yosh oralig'ida nikohga kirgan yoshlar (60 nafar qiz va 30 nafar o'g'il bola), 60 nafari oila qurmagan, biroq nikoh haqida fikrlovchi tengdoshlari hamda 30 nafari ota-onalar va oila a'zolaridan iborat bo'ldi. Ishtirokchilar tasodifiy bo'lmagan, maqsadli (purposive) tanlov asosida saralandi. Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi: ishtirokchilarga tadqiqot maqsadi tushuntirildi, ixtiyoriylik tamoyili saqlandi hamda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyiligi kafolatlandi.

Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik va ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish metodi;
- muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Erta nikoh motivlari" anketasi (25 ta savol, 5 balli Likert shkalasi asosida);
- yarim strukturalashgan chuqur suhbat metodi (har bir intervyu 40-60 daqiqa davom etgan);
- Spielberger-Xanin tashvish darajasini aniqlash metodikasi (shaxsiy va vaziyatli tashvishni o'lchash uchun);
- K. Riff tomonidan ishlab chiqilgan "Psixologik farovonlik" shkalasining moslashtirilgan varianti;
- M. Rokichning qadriyatli yo'nalganlik metodikasi (shaxs qadriyatlari tizimini o'rganish uchun).

Olingan miqdoriy ma'lumotlar SPSS Statistics 26.0 dasturi yordamida qayta ishlanib tahlil qilindi. Ma'lumotlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida Styudent t-mezoni va Mann-Whitney U-mezonidan foydalanildi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Pirson va Spirmen korrelyatsion tahlillari amalga oshirildi. Sifatli ma'lumotlar esa tematik tahlil (thematic analysis) usuli asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari erla turmush qurgan yoshlarda quyidagi asosiy psixologik motivlar ustuvor ekanligini ko'rsatdi. Anketa natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 68,9 foizi ota-ona va qarindoshlar tomonidan bo'lgan ijtimoiy bosimni asosiy sabab sifatida qayd etgan. Respondentlarning 54,4 foizi yolg'izlikdan qo'rqish va hissiy yaqinlikka intilishni, 47,8 foizi esa mustaqil oilaviy hayot kechirishga bo'lgan ichki istakni nikohga kirishning psixologik sababi sifatida belgilagan.

Ayniqsa, qizlar orasida "yoshlik o'tib ketishi", "keyinchalik kech bo'lib qolishi" haqidagi madaniy stereotiplarning kuchli psixologik ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ishtirokchilarning 62,3 foizi nikohdan oldin oila hayoti va er-xotin munosabatlari haqida yetarli psixologik tayyorgarlikka ega bo'lmaganini tan oldi. Mazkur ko'rsatkich erla nikohning rejali emas, balki ko'proq ijtimoiy bosim va hissiy reaksiyalar asosida yuzaga kelishini tasdiqlaydi.

Spielberger-Xanin metodikasi natijalariga ko'ra, erla nikohga kirgan yoshlarda shaxsiy tashvish darajasi o'rtacha 48,6 ballni tashkil etib, normativ ko'rsatkichdan (40 ball) sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi ($t = 4,21$; $p < 0,01$). Nikoh qurmagan tengdoshlarda esa ushbu ko'rsatkich 39,2 ballni tashkil etdi va statistik jihatdan farq mavjudligi tasdiqlandi.

Mazkur holat erta nikohga kirgan yoshlarda doimiy ichki keskinlik, kelajakdan xavotirlanish va o'ziga ishonchsizlik holatlarining uchrashini ko'rsatadi. Sifatli suhbat natijalari quyidagi tematik yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi:

- a) "o'zini topa olmaslik" hissi - ishtirokchilarning aksariyati o'zining shaxsiy maqsadlari, qiziqishlari va kasbiy yo'nalishini aniq belgilay olmaganini ta'kidladi;
- b) ota-ona oilasidan to'liq mustaqil bo'lolmaslik - yangi oilada ham qaynota-qaynona ta'siri ostida qolayotgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etdi;
- v) shaxslararo nizolarni hal qilish ko'nikmasining yetishmasligi - bahsli vaziyatlarda hissiy reaksiya birinchi o'rinda turishi qayd etildi.

K. Riff metodikasi natijalariga ko'ra, erta nikohga kirgan yoshlarda "shaxsiy o'sish", "hayot maqsadlari" va "avtonomiya" subshkalalari bo'yicha ko'rsatkichlar past darajada qayd etildi. Xususan, "avtonomiya" ko'rsatkichi o'rtacha 51,4 ballni tashkil etib, nazariy o'rtacha ko'rsatkichdan (60 ball) past ekanligi aniqlandi. Bu esa yoshlarning o'z qarorlarini mustaqil qabul qila olmasligi va boshqalarning fikriga ortiqcha tobe ekanligini tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlil natijalari erta nikoh yoshi va psixologik farovonlik o'rtasida o'rtacha kuchdagi musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ($r = 0,42$; $p < 0,01$). Ya'ni nikohga kirish yoshi qancha kichik bo'lsa, shaxsning umumiy psixologik farovonligi shuncha past bo'lishi aniqlandi.

M. Rokich metodikasi natijalariga ko'ra, erta nikohga kirgan yoshlarda "baxtli oilaviy hayot", "moddiy ta'minlanganlik" va "sevgi" qadriyatlari yuqori o'rinlarni egallagan bo'lsa, "o'z-o'zini rivojlantirish", "bilim" va "ijodiy faoliyat" qadriyatlari quyi pog'onalarda qayd etildi. Bu esa erta nikohga kirgan yoshlarda shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish qadriyatlari ikkinchi planga o'tib, oila va moddiy farovonlik markaziy o'rin egallashini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari erta turmush qurishning ko'p omilli psixologik hodisa ekanligini tasdiqladi. Mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin: shaxsiy-psixologik, oilaviy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy-psixologik omillar.

Erta nikohning birlamchi psixologik sabablari sirasiga hissiy yetuklikning yetishmasligi kiradi. E. Erikson nazariyasiga ko'ra, ilk balog'at davrida shaxs avvalo o'zligini topishi, kasbiy va dunyoqarash jihatidan o'zini aniqlashi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, erta nikohga kirgan yoshlarda "men kimman?" va "nima istayman?" kabi asosiy ekzistensial savollarga aniq javob shakllanmagan bo'ladi. Mazkur holat L.I. Bojovich tomonidan ta'riflangan "shaxsiy yetuklik" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, yetuk shaxs o'z qarorlarining oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi hamda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'ladi.

Tashvish darajasining yuqoriligi ham muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Yuqori tashvishli yoshlar ko'pincha noaniqlikdan qochish maqsadida tezroq "barqaror" hayot tuzumini izlaydi, oila qurish esa ularga psixologik xavfsizlik hissini berishi mumkin. Biroq ushbu xavfsizlik ko'pincha nisbiy xarakterga ega bo'lib, keyinchalik yangi muammolar - er-xotin nizolari, qaynota-qaynona bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar hamda moddiy yetishmovchiliklar yangi tashvish manbalariga aylanadi.

Ota-onaning bevosita ta'siri va oilaviy stsenariylar ham erta nikohga olib keluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. T.V. Andreeva va A.Ya. Varga oilaviy tizim nazariyasida ta'kidlaganidek, shaxsning oila qurish vaqti hamda shakli ko'pincha ota-ona oilasidagi naqshlarning takrorlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Tadqiqot natijalari ota-onasi erta turmush qurgan yoshlarning o'zlari ham erta nikohga kirish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mazkur holat "transgeneratsion uzatish" (avlodlararo o'tish) mexanizmi orqali izohlanadi.

Ayrim oilalarda qiz farzandni "tezroq erga berish" an'anasi ham saqlanib qolgan bo'lib, bu psixologik jihatdan ota-onaning o'z mas'uliyatini erta yakunlash va qiz tarbiyasini boshqaga topshirish istagi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holat qiz farzandda "keraksizlik" yoki "yuk bo'lib qolish" hissining shakllanishiga sabab bo'ladi.

O'zbek jamiyatida an'anaviy qadriyatlar oila institutiga nisbatan yuqori hurmat va qadrlash munosabatini shakllantiradi. Bu, albatta, ijobiy holat hisoblanadi, biroq ayrim vaziyatlarda yoshlarning shaxsiy tayyorgarligi ikkinchi planga tushib qolishiga olib keladi. "Qiz bola yoshlik chog'ida turmushga chiqmasa, keyin kech bo'ladi", "qarindoshlar nima deydi?", "qo'shnilar gapiradi" kabi ijtimoiy bosimlar yoshlar ongida ichki me'yor sifatida shakllanib boradi va ular o'zlari ham shu qarashlarni qabul qila boshlaydi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham yangi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tengdoshlarning nikoh marosimlari, "baxtli oila" obrazlari yoshlar orasida qiyosiy bosim (social comparison)ni kuchaytirib, "men ham xuddi shunday bo'lishim kerak" degan emotsional-impulsiv qarorlarni yuzaga keltirishi mumkin.



Iqtisodiy omillar ham muhim psixologik mazmunga ega. Ayrim oilalarda qiz farzandni erta turmushga berish moddiy yukni kamaytirish vositasi sifatida qaraladi. Yigitlar uchun esa erta nikoh ko'pincha "ulg'aygan", "mustaqil inson" maqomini olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu psixologik mexanizm "sotsial maqom orqali shaxs identifikatsiyasi" sifatida izohlanadi va shaxsning ichki resurslari hali to'liq shakllanmagan davrda kuchli motivatsion omilga aylanadi.

Erta turmush qurishning psixologik oqibatlari uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, ular orasida er-xotin o'rtasida hissiy yaqinlikning shakllanmasligi, ota-onalik vazifalarini bajarishda qiyinchiliklar, shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanishi, postpartum depressiya, hissiy charchoq hamda oilaviy nizolar yetakchi o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, har bir erta nikoh muqarrar ravishda muvaffaqiyatsiz bo'lishi shart emas. Ko'p jihatdan er-xotinning shaxsiy resurslari, ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi hamda psixologik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi.

Profilaktik nuqtai nazardan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- a) maktab va oliy ta'lim muassasalarida "Oila psixologiyasiga tayyorgarlik" kurslarini joriy etish;
- b) ota-onalar bilan ishlash hamda ularga farzandning shaxsiy tayyorgarligini birinchi o'ringa qo'yish zarurligini tushuntirish;
- v) nikohdan oldingi psixologik konsultatsiya xizmatlarini rivojlantirish;
- g) ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarning psixologik yetukligi haqida ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;
- d) yoshlar markazlarida shaxsiy o'sish va hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglarni tashkil etish.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida respondentlar sonining nisbatan kamligi va tadqiqotning faqat bitta viloyat doirasida olib borilganligini qayd etish mumkin. Kelgusida turli hududlar hamda madaniyatlarda qiyosiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari erta turmush qurish hodisasining ko'p qirrali psixologik mazmunga ega ekanligini tasdiqladi. Erta nikohga olib keluvchi asosiy psixologik omillar sirasiga hissiy yetuklikning yetishmasligi, yuqori tashvish darajasi, ota-onaning bevosita ta'siri, oilaviy stsenariylarning takrorlanishi, an'anaviy ijtimoiy-madaniy bosim, qiyosiy bosim hamda iqtisodiy-psixologik motivlar kiradi.

Erta nikohga kirgan yoshlarda psixologik farovonlikning past darajasi, avtonomiyaning cheklanganligi va shaxsiy o'sish qadriyatlarining ikkinchi o'ringa tushib qolishi kuzatildi. Shu sababli, erta turmush qurish muammosini hal etishda nafaqat huquqiy va ijtimoiy choralari, balki psixologik-pedagogik profilaktik faoliyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar bilan ishlash jarayonida ularning hissiy intellekti, qaror qabul qilish ko'nikmalari hamda shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalari oila psixologlari, ta'lim muassasalari psixologlari hamda yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреева Т.В. Психология семьи: учебное пособие. - Санкт-Петербург: Речь, 2014. - 384 с.
2. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. - Москва: Просвещение, 1968. - 464 с.
3. Выготский Л.С. Проблемы возрастной психологии // Собрание сочинений: в 6 т. Т. 4. - Москва: Педагогика, 1984. - 432 с.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 432 b.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2008. - 224 b.
6. Кон И.С. Психология юношеского возраста. - Москва: Просвещение, 1989. - 256 с.
7. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. - Санкт-Петербург: Питер, 2008. - 672 с.
8. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. - Москва: Прогресс, 1996. - 344 с.
9. Ryff C.D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology. - 1989. - Vol. 57. - № 6. - P. 1069-1081.
10. Spielberger C.D. Manual for the State-Trait Anxiety Inventory. - Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1983. - 36 p.
11. UNICEF. Child Marriage: Latest Trends and Future Prospects. - New York: UNICEF, 2023. - 64 p.
12. Xolnazarov Sh.X. Yoshlar oila psixologiyasi muammolari // Psixologiya. - Toshkent, 2022. - № 3. - B. 45-52.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.